



*2024- yil yanvar-mart oyi
uchun dastlabki ma'lumot*

NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(69) 227-84-95*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Namangan viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-mart oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 315,8 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 6,3 mln. AQSH dollariga yoki 2,1 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **315,8** +2,1 %

(2023- y.: 309,5)



Saldo

2024- y.: **-55,3** (2023- y.: -51,4)




Eksport

2024- y.: **130,0** +0,7 %

(2023- y.: 129,0)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **185,9** +3,1 %

(2023- y.: 180,4)












Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 130,0 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,7 % ga ko‘paydi) va import hajmi 185,9 mln. AQSH dollariga (3,1 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -55,9 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 101,9</p> <p>Eksport: 83,2 Import: 18,7</p> <p> 32,3 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 90,2</p> <p>Eksport: 13,2 Import: 77,0</p> <p> 28,6 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 19,1</p> <p>Eksport: 6,2 Import: 12,9</p> <p> 6,1 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 12,5</p> <p>Eksport: 3,7 Import: 8,8</p> <p> 4,0 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 21,4</p> <p>Eksport: 0,1 Import: 21,3</p> <p> 6,8 %</p>
<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 10,1</p> <p>Eksport: 2,5 Import: 7,6</p> <p> 3,2 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 10,5</p> <p>Eksport: 2,8 Import: 7,7</p> <p> 3,3 %</p>	<p>Belarusiya</p> <p>TSA – 6,1</p> <p>Eksport: 1,5 Import: 4,6</p> <p> 1,9 %</p>	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 3,1</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 3,1</p> <p> 1,0 %</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 5,2</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 5,0</p> <p> 1,7 %</p>

Namangan viloyati jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya (32,3 %), XXRda (28,6 %), Turkiyada (6,1 %), Qozog‘istonda (4,0 %) va Hindistondada (6,8 %) qayd etilgan.



NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	83,5	100,4	101,9

Eksport

58,1

78,5

83,2

Import

25,3

21,9

18,7



XXR	90,2	63,8	90,2
------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

15,7

8,9

13,2

Import

74,5

54,9

77,0



Turkiya	27,6	22,7	19,1
----------------	-------------	-------------	-------------

Eksport

15,6

4,3

6,2

Import

12,0

18,4

12,9



Qozog'iston	18,2	9,6	10,1
--------------------	-------------	------------	-------------

Eksport

15,2

6,9

2,5

Import

2,9

2,7

7,6



Hindiston	3,2	4,5	21,4
------------------	------------	------------	-------------

Eksport

0,3

0,1

0,1

Import

2,9

4,4

21,4



Qirg'iz Respublikasi	18,2	9,6	10,1
-----------------------------	-------------	------------	-------------

Eksport

15,2

6,9

2,5

Import

2,9

2,7

7,6



Germaniya	5,9	12,8	10,5
------------------	------------	-------------	-------------

Eksport

1,4

1,9

2,8

Import

4,5

10,9

7,7



Belarus	3,2	7,6	6,1
----------------	------------	------------	------------

Eksport

0,5

1,0

1,5

Import

2,7

6,6

4,6



Fransiya	1,8	2,9	3,1
-----------------	------------	------------	------------

Eksport

0,0

0,0

0,0

Import

1,8

2,9

3,1



Koreya Respublikasi	4,7	5,9	5,2
----------------------------	------------	------------	------------

Eksport

0,5

1,0











0,2

Import

4,2

4,8

5,1

	Davlatlar	2021- y.	2023- y.	2024- y.
	Tojikiston	2,8	1,6	2,3
	<i>Eksport</i>	1,0	1,4	1,0
	<i>Import</i>	1,8	0,2	1,3
	Eron	1,9	2,2	1,8
	<i>Eksport</i>	0,6	0,6	1,4
	<i>Import</i>	1,3	1,6	0,4
	Pokiston	0,8	0,2	1,6
	<i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,9
	<i>Import</i>	0,7	0,2	0,6
	Ukraina	5,1	1,7	2,4
	<i>Eksport</i>	2,0	0,6	1,6
	<i>Import</i>	3,1	1,0	0,9
	Avstriya	0,2	1,8	1,1
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
	<i>Import</i>	0,1	1,6	1,0
	Ozarbayjon	0,6	0,8	1,7
	<i>Eksport</i>	0,5	0,6	1,5
	<i>Import</i>	0,1	0,1	0,1
	Shveysariya	0,9	1,4	0,8
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,9	1,4	0,8
	Polsha	3,9	11,7	3,8
	<i>Eksport</i>	2,1	4,8	2,9
	<i>Import</i>	1,8	6,8	0,9
	Indoneziya	0,3	1,1	1,3
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,3	1,1	1,3
	Afg'oniston	0,8	1,5	0,9
	<i>Eksport</i>	0,7	1,5	0,9
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0



NAMANGAN VILOYATIDA HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	315,8	102,2	100,0
Namangan sh.	147,5	99,5	46,7
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	2,7	121,4	0,8
Kosonsoy	24,0	115,0	7,6
Namangan	16,2	125,5	5,1
Norin	13,3	84,7	4,2
Pop	8,8	100,1	2,8
To'raqo'rg'on	45,2	127,9	14,3
Uychi	21,1	103,8	6,7
Uchqo'rg'on	6,7	69,5	2,1
Chortoq	9,1	129,9	2,9
Chust	17,9	92,3	5,7
Yangiqo'rg'on	3,4	37,3	1,1

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 147,5

To'raqo'rg'on 45,2

Kosonsoy 24,0

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 2,7


Yangiqo'rg'on 3,4

Uchqo'rg'on 4,8

ViLOYATning tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri 46,7 % ulush bilan 147,5 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mingbuloq tumani 0,8 % ulush bilan 2,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga kamaydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,2 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.

Namangan Viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, 138,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 96,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 42,1 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



NAMANGAN VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)

Rossiya – 32,3



Qozog'iston – 4,0



Turkmaniston – 0,3



Qirg'iz
Respublikasi – 3,2



Tojikiston – 0,7



Belarus – 1,9



Ozərbayjon – 0,5



Ukraina – 0,8



Armaniston – 0,0




Moldova – 0,1



Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (32,3 %), Qozog'iston (4,0 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (0,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAMANGAN VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Namangan viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 130,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 90,9 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 39,7 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, 130,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAMANGAN VILOYATIDA XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	129,1	130,0	102,0	100,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,5	12,2	108,5	84,6	11,2	9,4
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,7	536,5	60,4	0,9	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,7	3,5	96,0	205,4	1,3	2,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,8	0,0	0	0,0	1,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0	0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	0,7	52,4	79,7	0,7	0,6
Sanoat tovarlari	66,5	70,6	84,5	106,1	51,6	54,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4,3	5,1	233,1	119,0	3,3	3,9
Turli xil tayyor buyumlar	32,9	32,2	127,0	97,6	25,5	24,7
Boshqa tovarlar	3,4	2,6	0	77,8	2,6	2,0
Xizmatlar	3,7	0,6	173,8	15,3	2,9	0,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 69,1 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (54,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,4 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (3,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**NAMANGAN VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024- yil
yanvar-mart)**


 XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12226,2	84,6
Sabzavotlar va mevalar	10974,2	91,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	649,0	42,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	23,6	11,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,6	1,7
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	483,8	90,0
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	85,3	37,4
Ichimliklar va tamaki	664,1	60,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	664,1	60,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3490,2	205,4
Moyli urug'lar va moyli mevalar	284,9	483,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon va o'simlik mahsulotlari	431,9	-
To'qimachilik talchalari (tops va boshqa chizilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip yoki matolarga qayta ishlanmagan)	2748,6	167,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1766,6	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1766,6	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	-	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	719,0	79,7
Boyog'chi va dubil moddalar va boyoqchilar	11,3	188,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	191,2	55,3
Yoqilmagan shakldagi plastmassalar	3,7	26,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyo materiallari va mahsulotlar	457,9	107,1
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumer moddalar; tualet preparatlari, jalb qiluvchi va yoyuvchi vositalar	55,0	50,3

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	70600,6	106,1
Qimmatbaho, karton va qo'shimcha massa, qo'shimcha yoki karton buyumlar	48,1	38,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	1531,3	118,0
Tizimdan va yog'chidan iborat buyumlar (mebeldan tashqari)	2,5	36,6
Teri, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor teridan ishlab chiqarilgan buyumlar	2586,6	149,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan ruda bo'lmagan qazilma mahsulotlar	125,7	49,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan rezina buyumlar		0,0
To'qimachilik ip tishlari, matolar, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor buyumlar va shunday mahsulotlar	66305,8	105,2
Cho'gin va bolat	0,7	1,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	5085,2	119,0
Avtomobillar (shu jumladan, havo yodgichidagi transport vositalari)	2,5	22,2
Aniq tarmoqlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46,2	50,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan mashinalar detallari	177,6	147,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari, apparatlari va asbob-uskunalar va ularning elektr detallari (shu jumladan, boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy asbob-uskunalarining elektrik bo'lmagan detallari)	4858,9	119,9
Turli xil tayyor buyumlar	32162,4	98,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv o'tkazish-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarining blok binolari, armatura va mustahkamlashlari	90,5	643,1
Yo'l buyumlari, sumkalar va shunday konteynerlar	59,0	275,0
Mebel va uning detallari, to'qimachilik buyumlari, matraslar, matraslar tiklovlari, yo'laklar va shunday mebel	14,2	13,6
Poyabzal	104,1	90,4
Kiyim-kecha buyumlari va kiyim-kecha buyumlari	31575,3	97,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan turli tayyor buyumlar	319,2	152,5
Boshqa tovarlar	2644,2	77,8

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Ukraina, Eron va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,6 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)





NAMANGAN VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	78,5	0,1	105,9	135,1	1	1
Xitoy	8,9	83,2	148,5	56,7	3	2
Turkiya	4,3	13,2	143,4	27,8	2	3
Qozog'iston	11,4	6,2	32,7	199,7	4	4
Polsha	4,8	3,7	60,5	232,7	29	5
Germaniya	1,9	2,9	148,0	133,3	13	6
Qirg'iziston	6,9	2,8	36,6	45,1	11	7
Ukraina	0,6	2,5	254,0	32,2	5	8
Ozərbayjon	0,6	1,6	236,3	128,3	12	9
Belarus	1,0	1,5	145,1	195,8	9	10
Eron	0,6	1,5	230,9	105,5	6	11
Isroil	0,5	1,4	198,3	138,6	7	12
Tojikiston	1,4	1,0	72,7	140,1	16	13
Pokiston	0,0	1,0	-	0,0	8	14
Afg'oniston	1,5	0,9	61,0	202,5	21	15
Turkmaniston	0,9	0,9	78,4	47,7	18	16
Quvayt	0,8	0,7	85,6	-	31	17
Gruziya	0,2	0,6	372,9	43,7	15	18
Maldova	0,1	0,6	336,4	41,3	26	19
Litva	0,1	0,4	200,9	166,6	25	20



NAMANGAN VILOYATIDA HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, mln.AQSH doll.)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	130,0	100,7	100,0
Namangan sh	43,5	82,0	33,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1,7	317,3	1,3
Kosonsoy	18,9	118,9	14,6
Namangan	5,8	101,5	4,5
Norin	7,2	355,0	5,6
Pop	3,7	121,9	2,8
To'raqo'rg'on	23,9	115,1	18,4
Uychi	11,5	142,3	8,8
Uchqo'rg'on	4,9	65,1	3,7
Chortoq	0,5	132,2	0,3
Chust	7,6	88,9	5,9
Yangiqo'rg'on	0,6	16,4	0,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 43,5

To'raqo'rg'on 23,9

Kosonsoy 18,9

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 1,7

Yangiqo'rg'on 0,6

Chortoq 0,5

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri 33,5 % bilan 43,5 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chortoq tumani 0,3 % bilan 0,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oylarida 13 679,9 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga yoki -719,0 tonnaga kamaydi.







Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (33,6 %), XXR (30,9 %), Rossiya (9,2 %), Qozog'iston (5,3 %) hamda Afg'oniston (3,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 8 927,5 ming. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan ozgarmadi va jami eksportdagi ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>204,1 ming. AQSH dollari</p> <p>289,2 tonna</p> <p> 41,5 % ↓</p>	<p>Piyoz</p> <p>1 156,2 ming. AQSH dollari</p> <p>5 789,1 tonna</p> <p> 8, m. % ↑</p>	<p>Pomidor</p> <p>470,7 ming. AQSH dollari</p> <p>398,2 tonna</p> <p> 58,8 % ↓</p>
<p>Xurmo</p> <p>189,9 ming. AQSH dollari</p> <p>295,5 tonna</p> <p> 79,6 % ↓</p>	<p>Uzum quritilgan</p> <p>645,2 ming. AQSH dollari</p> <p>296,1 tonna</p> <p> 198,1 % ↑</p>	<p>Karam</p> <p>213,1 ming. AQSH dollari</p> <p>596,2 tonna</p> <p> 33,8 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-mart)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 XXR	4233,5	2 763,2	31,0
 Rossiya	1259,1	1 796,9	20,1
 Turkiya	451,4	1 334,6	14,9
 Pokiston	4562,6	912,3	10,2
 Ozarbayjon	334,3	623,2	7,0
 Boshqa davlatlar	2839,0	1 497,4	16,8



* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Xitoyga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 31,0 % ni), bu ko'rsatkich Pokistonga eksport hajmidan 2,0 barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-mart oylari yakuni bo‘yicha 75,7 mln. AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 58,2 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 4,2 % ga kopaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj kiyimlar (27,7 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (35,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 24 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, ming. AQSH dollari)





NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 185,9 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (38,0 %), sanoat tovarlari (21,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart- dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 185,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,7 mln. AQSH dollariga yetdi.



NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	180,4	185,9	103,7	103,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30,5	28,2	141,4	92,6	16,9	15,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,1	8,7	107,2	85,7	5,6	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,9	3,7	41,9	126,9	1,6	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,6	2,9	65,4	63,1	2,6	1,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19,9	21,9	84,1	110,1	11,0	11,8
Sanoat tovarlari	42,3	39,5	107,9	93,2	23,5	21,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	56,4	70,7	91,3	125,3	31,3	38,0
Turli xil tayyor buyumlar	4,8	4,2	112,3	87,2	2,7	2,3
Boshqa tovarlar	8,8	5,3	0	75,3	-	2,8
Xizmatlar	-	0,7	-	-	-	0,4



XSSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart)

XSSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28230,7	92,6
03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari, tirik hayvonlar	3145,8	241,7
Don va ularning mahsulotlari	4507,8	41,1
Hayvonlar uchun ozuqa	3100,9	127,2
Kofe, choy, kakao, mahsulotlar va ulardan iborat mahsulotlar	2671,6	89,4
Sut mahsulotlari va parranda tuxumi	3273,2	97,4
Go'sht va go'sht mahsulotlari	5662,8	110,3
Sabzavot va meva	2957,2	127,2
Turli oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	2189,4	119,8
Baliq (dengiz sut emizuvchilari emas), shaqaloqlar, mollyuskalar va suv umurtqasizlari va ulardan tayyorlanadigan tayyorgarlik		0,0
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	721,9	3319,3
Ichimliklar va tamaki	66,9	-
Ichimliklar	66,9	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8696,8	85,7
Qo'shimcha massa va makulatura	67,8	42,7
Moyli urug'lar va moyli mevalar	996,1	114,2
Tabiiy kauchuk (sintetik kauchuk va regenerlangan rezina)		0,0
Tiklash va o'rmon materiallari	117,6	30,2
Bo'limga kiritilgan 56 dan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	6451,0	81,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon va o'simlik mahsulotlari	668,0	336,9
To'qimachilik talchalari (tops va boshqa chizilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip yoki matolarga qayta ishlanmagan)	362,7	141,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3651,3	126,9
Gaz, tabiiy va sun'iy	8,4	208,9
Neft, neft mahsulotlari va shunday materiallar	1204,5	55,0
Ko'mir, koks va briкетter	2438,4	357,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2903,1	63,1
Ishlangan hayvonlar va o'simlik moylari va moylari; hayvon va o'simlik urug'lari; boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon yoki o'simlik yoki o'simlik yo'llaridan tibbiy aralashmalar va preparatlar	292,3	15,2
O'simlik moylari va maylari, xom ashyosi, rafinlangan yoki fraktsiyalangan	2600,5	97,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	21946,9	110,1
Boyog'chi va dubil moddalar va boyoqchilar	1931,1	76,5
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	12279,8	446,2
Noorganik kimyoviy moddalar	433,6	62,3
Organik kimyoviy moddalar	914,4	37,3
Yoqilmagan shakldagi plastmassalar	581,4	98,7
Dastlabki shakldagi plastmassalar	4131,4	52,1
O'g'itlar (272-guruhga kiritilganlardan tashqari)		0,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyo materiallari va mahsulotlar	1576,1	101,2
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumer moddalar; tualet preparatlari, jalb qiluvchi va yoyuvchi vositalar	99,1	17,7


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	39356,9	93,0
Qimmatbaho, karton va qo'shimcha massa, qo'shimcha yoki karton buyumlar	1872,8	78,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	2866,1	103,9
Tizimdan va yog'chidan iborat buyumlar (mebeldan tashqari)	3202,0	124,6
Teri, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor teridan ishlab chiqarilgan buyumlar	51,1	49,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan ruda bo'lmagan qazilma mahsulotlar	2498,0	120,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan rezina buyumlar	465,3	53,0
To'qimachilik ip tishlari, matolar, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor buyumlar va shunday mahsulotlar	21001,5	94,5
Rangli metallar	190,1	119,5
Cho'gin va bolat	7210,0	78,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	70664,4	125,4
Avtomobillar (shu jumladan, havo yodgichidagi transport vositalari)	14021,2	130,0
Elektr aloqasi, ovozni yozib olish va ovozni chiqarish apparaturasi va uskunolari	30,3	347,0
Ma'lumotlarni avtomatik ishlash uchun mas'ul mashinalar va uskunalar	1660,5	194,9
Metallarni ishlash mashinalari	1103,7	223,2
Aniq tarmoqlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	36735,6	130,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan mashinalar detallari	8290,6	122,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari, apparatlari va asbob-uskunolari va ularning elektr detallari (shu jumladan, boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy asbob-uskunolarning elektrik bo'lmagan detallari)	5039,4	105,6
Energogenerator mashinalar va uskunalar	3783,0	86,1
Turli xil tayyor buyumlar	4228,1	87,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv o'tkazish-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarining blok binolari, armatura va mustahkamlashlari	602,7	107,1
Yo'l buyumlari, sumkalar va shunday konteynerlar	5,3	64,0
Mebel va uning detallari, to'qimachilik buyumlari, matraslar, matraslar tiklovlari, yo'laklar va shunday mebel	167,4	95,9
Poyabzal	53,4	56,3
Kiyim-kecha buyumlari va kiyim-kecha buyumlari	168,9	111,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan turli tayyor buyumlar	1725,7	124,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan maxsus, ilmiy va nazorat asbob-uskunolari va apparatlari	1490,8	62,3
Fotosurat apparaturasi, uskunalar, xarajat materiallari va boshqa toifalarga kiritilmagan optik buyumlar; soat	14,0	19,7



2024 - yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **22,6 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **15,0 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-mart oyida Namangan viloyati **55** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Germaniya, Qozog'iston Belarus va Qirg'iz Respublikasi) jami importning **2/3** qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)





NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	54,9	77,0	73,7	140,1	1	1
Hindiston	4,4	21,4	149,3	485,6	2	2
Rossiya Federatsiyasi	21,9	18,7	86,3	85,5	3	3
Turkiya	18,4	12,9	152,8	70,5	4	4
Qozog'iston	16,0	8,8	96,4	54,7	5	5
Germaniya	10,9	7,7	244,3	70,8	6	6
Qirg'iziston	2,7	7,6	93,5	276,4	7	7
Koreya Respublikasi	4,8	5,1	115,3	104,4	8	8
Belarus	6,6	4,6	243,5	69,7	9	9
Fransiya	2,9	3,1	164,4	106,5	10	10
Malayziya	3,1	2,0	230,1	65,6	11	11
Ispaniya	0,0	1,5	15,4	94m	12	12
Latviya	0,5	1,4	41,3	291,9	13	13
Tojikiston	0,2	1,3	13,3	552,9	14	14
Indoneziya	1,1	1,3	391,0	123,6	15	15
Yaponiya	1,1	1,2	407m	112,6	16	16
Niderlandiya	1,1	1,1	614,7	102,7	17	17
Italiya	3,2	1,1	524,9	33,8	19	18
Polsha	6,8	0,9	382,4	13,4	21	19
Ukraina	1,0	0,9	33,7	81,4	24	20



NAMANGAN VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	185,9	103,0	100,0
Namangan sh	104,0	109,2	55,9
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	0,9	56,0	0,5
Kosonsoy	5,1	102,5	2,7
Namangan	10,4	144,7	5,6
Norin	6,0	44,3	3,2
Pop	5,1	88,5	2,7
To'raqo'rg'on	21,2	146,2	11,4
Uychi	9,6	78,5	5,2
Uchqo'rg'on	1,8	84,9	1,0
Chortoq	8,7	129,8	4,7
Chust	10,3	95,1	5,5
Yangiqo'rg'on	2,8	49,8	1,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 104,0

To'raqo'rg'on 21,2

Namangan t. 10,4

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 0,9

Uchqo'rg'on 1,8

Chortoq 8,7

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **55,9 %** bilan **104,0** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mingbuloq tumani **0,5 %** bilan **0,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **70,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **25,3** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **38,0** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart)




2024- yil yanvar-mart oyida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,2** mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Namangan viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi **XXR** — **40,5** mln. AQSH dollari, **Turkiya** — **5,1** mln. AQSH dollari, **Koreya** — **2,7** mln AQSH dollari, **Hindiston** — **9,7** mln. AQSH dollari, **Germaniya** – **3,4** mln. AQSH dollari, kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 39,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 21,2 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart)

19,6 mln. AQSH doll.
ulushi – 49,7 %



XXR

4,9 mln. AQSH doll. ulush
– 12,3 %



Rossiya

4,6 mln. AQSH doll.
ulushi – 11,7 %



Turkiya

2,8 mln. AQSH doll.
ulushi – 7,2 %



Qozog'iston

2,1 mln. AQSH doll.
ulushi – 5,3 %



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importida beshta yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya) jami importning 86,3 % ini tashkil qiladi, bu 34,0 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.